

BADIY MATNDA TERMIN-O'XSHATISHLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Raximova Zulfiyaxon Xashimjanovna

(Andijon mashinasozlik instituti

O'TA kafedrasi assistenti

Andijon davlat pedagogika instituti

BTM kafedrasi stajor-o'qituvchisi)

Annotatsiya. Mazkur maqolada termin-o'xshatishlarning badiiy matnda qo'llanishi va o'ziga xos uslubiy xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: termin, so'z, uslub, o'xshatish, obrazlilik, badiiy tasvir vositasi, badiiy matn.

Аннотация. В статье анализируется использование терминологии в художественном тексте и ее стилистические особенности.

Ключевые слова: термин, слово, стиль, аналогия, образность, средство художественного образа, художественный текст.

Resume: The article analyzes the use of terminology in a literary text and its methodological features.

Key words: term, word, style, analogy, imagery, artistic image tool, artistic text.

Ma'lumki, hozirgi kunda terminologik birliklarni o'rganishga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar terminlarning leksik birlik sifatidagi maqomini chuqur o'rganishni taqazo etmoqda. Leksik birliklar badiiy matnda uzual va okkozonal ma'nolarda qo'llanib, badiiy tasvirning ifodaliligini, obrazliligin, emotisionalligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'z navbatida, terminlar ham leksik tizim tarkibiga kiruvchi birlik sanaladi. Oddiy so'zlardan farqli o'laroq terminlar maxsus ilm-fan sohasida qo'llanilib, mavhum yoki aniq nazariy tushunchani ifodalash uchun qo'llanishga ixtisoslashgan lug'aviy birlikdir. Terminlar tilning maxsus leksikasi tarkibiga kiruvchi o'ziga xos birliklar hisoblanadi. A.Madvaliyev terminlarni ham chegaralangan leksik qatlamga mansub lug'aviy birliklarga kiritadi va ularning terminologik tadqiqotlarning asosiy obyekti ekanligini ta'kidlaydi[1]

Badiiy asar tilinin obrazliligin, emotional-ekspressivligini oshirishga xizmat qiladigan til vositalari ilmiy adabiyotlarda tasviriyl vositalar deb yuritiladi. O'xshatish hodisasi ham badiiy tasvir vositalaridan biri sanaladi. O'xshatish – tasvir obyektini boshqa narsa-hodisaga o'xshatish orqali yorqin va bo'rttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi bo'lib, bunda o'xhatilayotgan narsa-hodisalar uchun umumiyl belgi-xususiyatlarga

tayaniładi [2] M.Mukarramov o'xshatishlar sezgilar yoki tasavvurlar orqali ro'yobga chiqishiga qarab konkret va abstrakt, badiiy adabiyot tilida qo'llanishiga ko'ra an'anaviy va individual, komponentlarning soni, ma'nosi, miqdori jihatidan to'liq, to'liqsiz, vositasiz, sodda, murakkab, tarkibli, uzilgan, inkor, kinoyali, satirik, chog'ishtiruvli kabi bir qancha turlarga bo'linishini ta'kidlab o'tadi. Terminlar ham badiiy matnda poetik jihatdan aktuallashib, badiiylikni, obrazlilikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, terminlarni gap doirasida emas, matniy qurshovda tahlil etish maqsadga muvofiq. Anglashiladiki, terminlar ham tor doirada ishlatilmaydi, ularni qo'llashga ehtiyoj tug'ilsa nutqda keng qo'llanishi mumkin. Ya'ni ular umumiste'mol so'zlari kabi nutqda faol qo'llanishi imkoniyatiga ega [3]

Badiiy matnning asosiy maqsadi kitobxonga estetik ta'sir etishdan iborat. Terminlar ham ma'lum darajada shu maqsadni ro'yobga chiqarishga yo'naltiriladi, ammo bu barcha terminlar ҳам shunday imkoniyatga ega degan xulosani bermaydi, albatta.

Terminlar badiiy asarda qo'llanilib, yozuvchining badiiy maqsadini ro'yobga chiqarishga xizmat қiladi. Shunga ko'ra keyingi paytlarda uslublararo uyg'unlikning yuzaga kelayotgani bois badiiy matnda qo'llangan terminlar tadqiqiga alohida e'tibor kuchaymoqda. Bunga, asosan, vogelikni aks ettirish, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar ko'laming kengayib borishi ҳамda ilm-fan taraqqiyoti va uning tobora ijtimoiy hayotga chuqur singib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Bu ҳам ma'lum darajada badiiy asar mazmuni va ko'laming ҳам kengayishiga sabab bo'lmoqda. [4] Natijada, jamiyatda sodir bo'layotgan vogelikni aks ettirish nuqtai nazaridan badiiy asarning mavzu doirasi turli fan sohalari yutuqlarini hayotga tatbiq etish ҳамda ommalashtirishga qaratilmokda. Shoir yoki yozuvchilar tomonidan badiiy uslubga ilmiy uslub, ommabop uslub xususiyatlarini singdirilishi nutq uslublari uyg'unlashuvining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Jumladan, ilmiy uslubga xos terminlarda ҳам boshqa uslublarga xoslanish imkoniyati yuzaga kelmoqda. Ya'ni ilmiy uslubda qo'llanadigan ko'plab terminlar bemalol badiiy uslubda qo'llanilmoqda.

Terminlarning o'xshatish, ya'ni obrazli tasvir vositasi sifatida qo'llanishini quyidagi misollar orqali ko'rish mumkin.

Goh ojizman kaklikday,

Ichimda faryodim-a,

Fotimajon, Fotima. (M.Y."Fotima")

Berilgan misolda kaklik (zool.at.) termini – **day** affiksini olib o'xshatish hosil qil qilgan. Bu original-muallif o'xshatishi hisoblanadi. So'ng o'rinni, to'liqsiz

o'xshatish. Obyekt (men) yashiringan, obraz - kaklikday, belgi - ojizman, o'xshatish vositasi – day. Mazkur o'xshatish obrazi badiiy matnda juda kam qo'llanilgan, faqat shoir tafakkurigagina xos, betakror hosila obraz. Baytda bolalik - obyekt, yulduzday - obraz, olis – belgi sanaladi. So'ng o'rinli, to'liq o'xshatish. Yulduz atamas umumtilga shu darajada singib ketganki, doim ham uning terminligi eslanavermaydi. Ayniqsa, turg'un birikmalar yasashda, shuningdek, ko'chma ma'no va o'xshatishlar hosil qilishda faol qo'llanadi: yulduzi sovuq, yulduzni benarvon urmoq, yulduzi-yulduziga to'g'ri kelmoq. Shunday terminlar borki, ular allaqachon umumtil birligiga aylangan bo'lib, nutqda turg'un o'xshatishli konstruksiyalarning faol komponenti sifatida muntazam qo'llanilish darajasiga yetgan: yulduz, gul, oy, soya, tosh kabi atamalar shular jumlasidandir [5]

Masalan:

Jonim og'riyverar sizni o'ylasam,

Gulday yuzingizni silar endi kim....

Yillar o'taverar, ko'zim o'ngidan,

Sizning oydek ruxsoringiz ketmadi... (M.Y."Maktub")

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, qo'llanishi ma'lum uslub (ilmiy) doirasida chegaralangan terminlar ham badiiy matnda turli uslubiy ma'nolarni ifodalash, nutqning ta'sirchanligini oshirish, obrazlilikni ta'minlashga xizmat qiladi hamda poetik aktuallashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, lingvopoetik maqsadni amalga oshirishda vositasi sifatida qo'llana oladi.

Badiiy matnda terminlar badiiy tasvir vositasi sifatida qo'llanib, lingvopoetik jihatdan turli uslubiy ma'nolarni ifodalashi mumkin. Har qanday termin alohida olinganda, lingvopoetik qimmatga ega bo'la olmaydi, u bu qimmatni faqat matn doirasidagina ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Terminlarni qo'llashda yozuvchining mahorati va terminlarning semantik strukturasini chuqr anglash hamda asar mazmuniga singdirishdek murakkab uslubiy jarayon yotadi.

O'zbek xalqining ardoqli va mahoratlari yozuvchilari ham o'z asarlarida terminlardan juda o'rinli foydalanganki, natijada terminlar asosiy matn mazmuni va lisoniy qurilishi bilan uyg'unlashib, yozuvchining ko'zda tutgan g'oyasining ro'yobi uchun go'zal bir tarzda , inson axloqiy mezonlari bilan bog'liq jihatlarni tasvirlashda original tasvir vositasiga aylangan desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. [6] Buni asardan olingan quyida keltirilgan misoldan ham ko'rish mumkin

Masalan: *Mamlakat ma'naviyati tubanlikka yuz tutgan bo'lsa, jaholat botqog'iga bo'g'ziga qadar botgan bo'lsa, bir necha olimning harakati*

kifoya qilmaydi. Bu botqoqlikdan yakka yolg'iz chiqish qiyin. Jaholatni turli razilliliklar onasi dedik. Jaholatning suyumli farzandlaridan biri – mutaassiblik (fanatizm)dir. Mutaassiblik ilmsizlik bulog'idan suv ichadi. Mutaassiblik avvalo din kushandasidir, so'ngra esa jamiyat jigaridagi qurtdir. Mutaassiblik faqat dinga xos tushuncha emas.

Demak, badiiy matnda terminlar ekspressivlikni ifodalash uchun qo'llaniladi va badiiy tasvir vositasiga aylanadi. Bu esa, o'z navbatida , asarning badiiyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мадвалиев А. Ўзбек терминалогияси ва лексикографияси масалалари.- Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2017
2. Маҳмудов Н. Илмий матнда термин таносиби ва такомили // Ўзбек тили ва адабиёти, 2020.№ 2.
3. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. –Т.: “ Фан”, 1976.
- 4.Рахимова З. Бадиий матнда турли соҳа терминларининг кўчма маънода қўлланиши (T Page 1 “PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.- Т.,1978.
- 6.Қурунов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. –Т.: “ Akademnashr”, 2010.